

AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI BO'LGAN BOLALAR TASNIFI**Karimova Zulfiya Abdurahmonovna**

Alfraganus universiteti "Pedagogika va psixologiya"

kafedrasи o'qituvchisi

Toxirova Mubina Fozilovna

Alfraganus universiteti Pedagogika fakulteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14941198>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xozirgi kunda bolalar orasida ommalashib borayotgan "Autizm" tashxis haqida fikr yuritilgan bo'lib, bu ruhiy holat buzilishlarining dunyo miqyosida dolzarb mavzuga aylanib borayotganligi, tarixi, bugungi kun holati va mavjud muammoga oid tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: autism, neyro yallig'lanish, muloqot, sensor ta'sirchanlik, autism spektrining buzilishi, hissiy ifoda, stereotipik xatti-harakatlar, noverbal muloqot.

CLASSIFICATION OF CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDER

Abstract. This article discusses the diagnosis of "Autism", which is currently becoming popular among children, and discusses the fact that this mental disorder is becoming a relevant topic worldwide, its history, current status and recommendations for the current problem.

Keywords: autism, neuroinflammation, communication, sensory sensitivity, autism spectrum disorder, emotional expression, stereotypical behavior, nonverbal communication.

КЛАССИФИКАЦИЯ ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

Аннотация. В статье рассматривается диагноз «Аутизм», который в настоящее время становится все более популярным среди детей, а также обсуждается тот факт, что это психическое расстройство становится актуальной темой во всем мире, его история, современное состояние и рекомендации относительно актуальной проблемы.

Ключевые слова: аутизм, нейровоспаление, коммуникация, сенсорная чувствительность, расстройство аутистического спектра, эмоциональное выражение, стереотипное поведение, невербальная коммуникация.

Autizm – bu rivojlanishning kompleks buzilishi bo'lib, ijtimoiy o'zaro munosabatlар, tilni o'zlashtirish va emotsiyal, kognitiv, harakatli va sensor qobiliyatlar hamda bu qobiliyatlarning rivojlanishida orqada qolishning butun bir qator muammolarini o'z ichiga oladi.

Bu bilan bir qatorda, ko‘pincha xulqning o‘ziga xos shakllari: o‘z o‘qi atrofida aylanish, o‘yinchoqlarni bir qatorga tizish, so‘zlarni maqsadsiz va ma’nosiz takrorlash kuzatiladi. Bunday simptomlar munosabatga kirishish, muloqot qilish va fikrlash qobiliyati bilan bog‘liq muammolarning oqibati hisoblanadi. Autizmi bor yoki autistik sohasidagi buzilishlari bor bolada til, fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalar undagi buzilishlar shu sohaning qaysi qismiga tegishli ekanligiga qarab farqlanadi.

Autizm atamasi Eyigen Bleyler tomonidan kiritilgan, ammo uni shizofreniya alomati deb ta’riflagan. 1938 yilda Xans Asperger autizmni "autistik psixopatiya" deb ta’riflagan. Uning sharafiga yuqori funktional autistlarni "Asperger sindromi" deb nomlanadi. 1943 yilda Leo Kanner "affekiv aloqaning ostistik kasallikkлari" maqolasida autistik kasallikkлarni tasvirlab berdi.

Kanner sindromi, shuningdek, erta bolalik autizmi uning nomi bilan atalgan. Stiv Silberman “NeuroTribes: Autizm merosi va neyrologiyaning kelajagi” nomli kitobida, “autist odamlar doimo insoniyat jamoasining bir qismi bo‘lgan” - deb aytgan. Bugungi kunda autizmning 98 ta turi bo‘lib, ularning har biri alohida hususiyatlar bilan kechadi va o‘ziga xosdir. Autizmning ayrim turlarida bolalar tashqi muhitdan uzilib qoladi, bir guruhi esa o‘zini o‘zi eplay oladi. Yana shunday autist bemorlar borki, ulardan mashhur olimlar yetishib chiqadi. Bunga Eynshteyn, Motsart, Charlz Darvin, Tomas Jefferson, Bill Geytsni misol qilib keltirish mumkin.

Autizm belgilari har bir bola farq qilishi mumkin va odatda erta bolalikda paydo bo‘ladi.

Autizm spektriga to‘g‘ri keladigan ba’zi alomatlar quyidagilardir:

Ijtimoiy muloqotda cheklanishlar autizmli bolalar ko‘z bilan aloqa qilishda qiyinchiliklarga duch kelishida, boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarda va hissiy ifodalarni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishlarida namoyon bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy o‘zaro munosabatlardagi cheklovlar boshqa odamlar bilan bog‘lanish va munosabatlarni rivojlantirish qobiliyatiga ta’sir qiladi.

Autizmli sindromli bolalarda odatda nutq rivojlanishining kechikishi kuzatiladi. Nutq qobiliyatları yaxshilanishi mumkin bo‘lsa-da, ba’zilari bema’ni yoki takroriy so‘zlardan foydalanishi, exolaliya kuzatilishi mumkin. Ba’zi autizmli bolalarga nutq o‘rniga noverbal aloqa turidan - imo-ishoralar, belgilar yoki muqobil aloqa usullari (masalan Peks kartochkalari)dan foydalanishga o‘rgatiladi.

Autizmli bolalar takrorlanadigan va stereotipik xatti-harakatlarga, cheklangan va kuchli qiziqishlarga ega bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ular qo‘llarini silkitishlari, bir joyda aylanishlari va ma’lum bir mavzuga e’tibor berish kabi xatti-harakatlarni namoyon qilishlari mumkin.

Autizm spektri buzilgan bolalarda tovush, yorug'lik va taktil teginish kabi hissiy sezgirlikning balandligi yoki kamligini kuzatish mumkin. Ba'zi hollarda, bu o'zini yuqori sezuvchanlik yoki befarqlik shaklida namoyon qilishi mumkin.

Autistik sohadagi buzilishlar bizning yangicha qarashimiz kuzatiladigan belgilarni hisobga oladi, lekin ularni kasallikning ichki rivojlanishi mantiqi nuqtai nazaridan ko'rib chiqmaydi.

Autistik sohadagi buzilishlarning bu yangi ta'rifi doirasida ikkilamchi belgilarning sabablari chuqur buzilishlar bo'lgan xulq-atvor turlari sifatida qaraladi. Masalan, ayrim bolalar o'z o'yinchoqlari bilan shug'ullanishda "Ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish" deb nomlanadigan qobiliyatga ega emasligini namoyon qiladilar, o'yinchoqlarni ota-onalari yoki tengqurlari bilan birga vaziyatga moslashgan holda o'ynashga qodir bo'lmaydilar. Ular o'z o'yinchoqlarini enagaga ko'rsatish, yayrab kulish va imo-ishoralar bilan e'tibor qaratishni bilmaydilar.

Bunday belgilar chuqur bazaviy qobiliyatlar yo'qligini aks ettiradi va ular shu tufayli kelib chiqadi. Shunga o'xshash yana bir belgi – qiziqishlar doirasining torligidan iborat. Bolalar o'z qiziqishlari doirasini muloqot vositasida kengaytiradilar, shuning uchun, agar ular boshqa odamlar bilan mutazam munosabatda bo'lib, o'z istaklari va ehtiyojlarini ifodalash uchun imo-ishoralardan foydalanmasalar, ularning qiziqishlari doirasi torligicha qoladi.

Shunga o'xshash belgilarlar autistik sohada buzilishlar borligini ko'rsatishi mumkin, lekin ular tashxis qo'yish uchun yagona asos bo'lmasligi kerak. Asosiysi, to'g'ri tashxis qo'yish va bolada mayjud bo'lgan haqiqiy muammolarni aniqlash uchun eng zaruri – bu bola yuqorida tavsiflangan uchta asosiy qobiliyatlarni qanday darajada namoyon qilayotganligini baholashdan iborat.

Autistik sohadagi buzilishlar bo'yicha noto'g'ri qo'yilgan tashxislardan ko'pining bosh sabablaridan biri – bolaning ota-onasi yoki unga g'amxo'rlik qilayotgan boshqa katta yoshli bilan munosabatini kuzatishga yetarlicha e'tibor qaratmaslikdan iborat.

Ko'p hollarda bolalarni ota-onalaridan ajratib, rivojlanish darajasini aniqlash bo'yicha har turdag'i testlardan o'tkazadilar, lekin bunda ularning axborotni qayta ishslash bilan bog'liq individual xususiyatlarini e'tiborga olmaydilar. Bolalar bundan asabiylashadilar va o'z qobiliyatlarining eng past darajasini namoyish qilgan holda o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Mutaxassis to'g'ri tashxis qo'yish uchun bola o'zining nimalarga qodirligini ko'rsatayotgan hamma holatlarda ham kuzatishi lozim va tashxis uning hamma qobiliyatlari sohasiga to'laligicha asoslangan bo'lishi kerak.

Shu vaqtgacha autizm kasalligini genetik kasallik deb hisoblashgan.

Lekin so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, autizm kasalligi atrof-muhitdagi zararli-kimyoviy moddalarning ko‘payishidan, 4 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kelib chiqmoqda va autizm kasalligi dolzarblashib bormoqda.

Sog‘lom bola rivojlanishida va autizm kasalligini oldini olishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish muhim hisoblaniladi:

- kasallikni erta aniqlab muhitni o‘zgartirish;
- ona bolaning yoshidan kelib chiqib, u uchun vaqtini mazmunli sariflashi uchun yangi mashg‘ulot o‘ylab topish;
- bola xarxashasining aniq sabablarini o‘rganib, hal qilishga harakat qilish;
- bolalarni ko‘proq ko‘chada, tabiat qo‘ynida muloqotda bo‘lishiga e’tibor berish kabilar bo‘ladi.

REFERENCES

1. L.R.Mo‘minova “Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari”/uslubiy qo‘lanma/ T:«Spectrum Media Group» 2015.
2. Морозов С.А. Детский аутизм и основы его коррекции. Москва 2002.
3. Волкмар, Ф. Р., Вайзнер, Л. А. Аутизм: Практическое руководство для родителей, членов семьи и учителей: Екатеринбург: Рама Паблишинг, 2014.
4. Информационный портал РИА-новости «Диагноз которого нет»:
http://www.ria.ru/trend/autism_02042012/
5. Norboyeva Z.R., Karimova Z.A. “Autizm sindromli bolalar bilan korreksion ish olib borish” Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. Vol. 3 No. 28 (2024), p 436-439 <https://interoncof.com/index.php/nether/article/view/4041>